



TALABALAR O'RTASIDA HAMKORLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING KLASTER METODINI TA'SIRI VA AFZALLIKLARI

Омабоеева З.Ф.

*Андижон қишилоқ хўжалиги ва Агротехнологиялар институти Ўзбек тили
педагогика ва жисмоний маданият кафедраси асистенти*

Tayanch so'zlari: klasterli yondashuv, interfaol metodlar, mehnat taqsimoti, ma'naviy-ma'rifiy, atamalar, tushuncha

Ключевые слова: кластерный подход, интерактивные методы, разделение труда, духовно-просветительский, термины, концепция.

Key words: cluster approach, interactive methods, division of labor, spiritual and educational, terms, concept.

Zamonaviy pedagogikada klasterli yondashuvning o'rni alohida tahsinga sazovor chunki mazkur yondashuv turfa xil yo'nalishlardagi fanlarning umumiylikdadagi faoliyati samaradorligini oshirishning zamonaviy usullaridan biri hisoblanib, zamonaviy talabalararo hamkorlik madaniyatini vujudga kelishining nazariy va metodik jihatdan o'zagi sifatida e'tirof etilishi lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur yondashuvning o'ziga xosligi talabalarning samimiylarraqobatbardoshligini oshirishda ta'lim tizimiga o'zaro ijobjiy munosabat, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, kasbiy faoliyat yuzasidan ko'prik vazifasini o'taydi deb ishonch bilan aytish mumkin.

Tadqiqot doirasida mavzu yuzasidan turli adabiyot va ilmiy ishlarni o'rganish natijasida klasterli yondashuvning nazariy tahlili olib borildi. Bundan maqsad shuki, turli sohalarda, jumladan pedagogik-psixologiyada talabalararo hamkorlikni tashkil etishning klaster shaklining afzalliklari, zarurati kabi tomonlariga aniqlik kiritilib, foydali tomonlari o'rganildi.

Pedagogika fanidan izohli lug'atda "Klaster" (Tarmoqlar) metodi - o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, umumiyligi fikr doirasini kengaytirishga, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir-biri bilan bog'liqligini anglab olishga o'rgatuvchi metod hisoblanadi. By metoddan asosan darsning yakuniy



qismida yoki bob yuzasidan takrorlash o'tkazilganda, umuman, avval egallagan bilimlarini takrorlash va mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin” degan ta’rif keltirilgan. [1.53-b.]

Pedagog olim D.Ro’zievaning “Interfaol metodlar: moxiyati va qo’llanilishi” nomli metodik qo’llanmasida “Klaster” (g’uncha, to’plam, bog’lam) metodi puxta o’ylangan strategiya bo’lib, uni o’quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil etiladigan mashg’ulotlarda qo’llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g’oyalarni umumlashtirish, ular o’rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi”-deya ta’riflaydi. [2.36-b.]

Oliy ta’lim muassasaları talabaları jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida klasterlarning o’zaro munosabatlardagi imkoniyatlarini nazarii tahlil qilish asosiyalarini aniqlashga imkon yaratadi:

- ta’lim maqsadini bo’lajak kadrlarning atrofidagi olamga mustaqil ravishda adaptitsiyasi uchun zaruriy bo’lgan individual sifatlar va qadriyatlarni shakllantirishga yo’naltirish (mazkur ta’lim modelining talabalarga yo’naltirilganligi);
- g’oyalarni ilgari surish va amalga oshirish jarayonida o’zaro hamkorlik qatnashuvchilari ijtimoiy-ma’naviy salohiyati va imkoniyatlarini oshirish orqali sinergiya samaradaorligini tarkib toptirish;
- kognitiv takomilashish mexanizmlarini amalda sinab ko’rish, “Ijodiy hissiy ko’rinish” ni tatbiq etish, o’zining ijodiy qobiliyatları va ishlarini hamkorlarining o’zaro muvofiq xusiyatlari bilan qiyoslash, qolaversa, motivatsion impuls ta’sirining paydo bo’lishi va qadriyatlarning o’zgarishini ko’rsatadi;
- tadqiqot shart-sharoitlarini, usullarini, mavzularini va jamoalarning hamkorligini mustaqil tanlashni kafolatlash, bu har birining birligida faoliyat natijasi uchun shaxsiy javobgarligi yuzasidan mas’uliyatini oshirishga zamin yaratadi;
- klasterning har bir a’zosiga “butunni tashkil etishga muhim hissa qo’shish” yoki “mehnat taqsimoti” (vakolatlarni taqsimlash) orqali o’z ixtisosligini rivojlantirish va o’z qarashlarini aks ettirishda faol ishtiroy etish imkoniyatini taqdim etish;
- ma’lumotlarning doimiy maxfiyligi va erkin almashinushi;
- insonlar;
- harakatni o’z-o’zini tashkil etish mexanizmlarini yangilash va o’zaro munosabat jarayonini tashqaridan nazorat qilishning zarurati yo’qligi.

Shamovaning fikricha, “Klaster raqobatdosh ustunlikka erishish yo’lida manfaatdor tomonlarning sa’y-harakatlarini birlashtirishning tashkiliy shaklidir. Ta’limni rivojlantirishga klaster yondashuvini amalga oshirish, olimning fikricha,



barqaror hamkorlikni rivojlantirish asosida pastdan amalga oshiriladigan muammo ustida ishslash jarayonida klaster subyektlarining o'zaro va o'z-o'zini rivojlantirishini nazarda tutadi. bu alohida ishtirokchilarining ham, umuman klasterning ham o'ziga xos afzalliliklarini oshiradi” [2.29-b].

T.G.Davыidenkoning ta'kidlashicha, “O'quv klasterlari umumiyl maqsad yo'lida birgalikda ishlaydigan subyektlar yig'indisi bo'lib, maqsadlar global yoki mahalliy bo'lishi mumkin. Global maqsad oliv o'quv yurtlari bitiruvchilar o'rtasida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni, mahalliy maqsad esa turli fanlar va ta'lim yo'nalishlarining o'quv jarayonlarida qo'shma loyihalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi” [2. 66-b].

Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda klaster yondashuvidan samarali foydalanish variantlarini tavsiflab, talabalararo yuzaga kelishi mumkin bo'lgan klasterlarning turfa xil yo'nalishlarini biz quyidagi xususiyatlarini belgiladim:

- klasterning birinchi turi kafedra professor-o'qituvchilari hamda talabalarni birlashtirishga hizmat qilishi;
- klasterning ikkinchi turi umumlashtirilgan loyiha doirasidagi aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan oliv ta'lim muassasalarining turli xil o'quv-fanlarini integratsiyasidan kelib chiqib amalga oshirishi;
- klasterlarning uchinchi turi tashqi hamkorlar ishtiroki doirasida ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorchiligi ma'lum bir turdag'i loyihalarni amalga oshirishga qaratilib, oliv ta'lim muassasalarining tashqi hamkorlikdagi o'zaro sherikchilikni mustahkamlanishiga hizmat qilishi;
- klasterning to'rtinchchi turi bir qancha oliv ta'lim muassasalar katta korxonalar bilan yirik loyihalarda ishtirok etishida shakllanadi.

Klasterning o'ziga xos an'anaviy xususiyatlardan biri uning innovatsion yo'nalishi ekanligidan kelib chiqib, klasterning innovatsion ta'sir doirasini oshirish, qatnashuvchilarga ilmiy-tadqiqot faoliyat sohasi ko'lamin kengaytirish imkoniyatlarini yuzaga kelishi muhim ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

Oliv ta'lim muassasalarida talabalar jamoasida ta'lim klasterlarini ishlab chiqish yuzasidan treninglarni tashkil etish va amalga oshirishda biz uchun ta'limni yanada rivojlantirish konsepsiysi muallifi AQShlik olim Jozef Renzullining quyidagi fikri asos bo'la oladi. Olim AQShning ko'plab oliv ta'lim muassasalari asosida talabalarni samarali faoliyatga kirishish imkoniyatini tadqiq etib, nazariy jihatdan asoslab bergen va amaliy faoliyatda sinovdan o'tkazgan. Klaster tushunchasini “Maqsadli auditoriya uchun muhim bo'lgan mahsulot yoki xizmatni yaratish uchun maxsus tashkil etilgan laboratoriylar o'quv guruhlari ijodiy ustaxonalarining amaliyotga yo'naltirilgan faoliyati.”- deya izohlaydi. [2.366-b]



Oliy talim muassasasi talabalari o'rtasida hamkorlik madaniyatini shakllantirish muammosini hal qilish yo'llarini izlash bu maqsadda klaster o'zaro ta'sirining ta'lim salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga olib keladi.

Klaster o'zaro ta'siri zamонавиј тадқиқотчиларинг илмиј ишларда жуда кенг юритилган. Klaster yondashuvini amalga oshirish variantlaridan biri ekanligini aniqlashga imkon berdi.

Ta'lim klasterining faoliyati an'anaviy ravishda uning subyektlari (ta'lim, ishlab chiqarish, ilmiy muassasalar va boshqalar) bilan birgalikdagi faoliyatining uzoq muddatli, tizimli xususiyati bilan tavsiflanadi. Universitetning haqiqiy o'quv jarayonida bir qator obyektiv qiyinchiliklar bilan bog'liq. Shu sababli, tadqiqt muammosini tashqi muassasalar (potensial ish beruvchilar) mutaxassislarini jalb qilgan holda mahalliy ta'lim klasterlari (ЛОК) doirasida universitet talabalari faoliyatini tashkil etish orqali hal qilish mumkin, deb hisoblaymiz.

Adaboyotlar:

1. Hasanboyev J. To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T., Fan va texnologiya, 2008, 153- bet.
2. Ruziyeva D., Usmonboyeva M., Xolikova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma. - Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2013. - 36 bet.
3. Shamova T. I. Кластерный подход к развитию образовательных систем. Взаимодействие образовательных учреждений и институтов сотсиума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: материалы X Международного образовательного форума: в 2 ч. / отв. ред. Т. М. Давыденко, Т. И. Шамова. - Белгород, 2006. - Ч. 1-С. 29-6
4. Давыденко Т.Г. Е.А.Жиляков. О кластерном подходе к формированию профессиональных компетенций. Высшее образование в России. - 2008. - № 7. - С. 69
5. Рензули Дж.С., М.Джентри, С.М.Рейс. Обогащающее обучение: путеводитель по практико-ориентированному, основанному на потребностях студентов обучению. Владивосток: ВГУЕС, 2006 -19 с.
6. Z. E. Azimova, Z. Otaboeva Pedagogical peculiarities of studying group solidarity in the student community// International scientific journal of "Science and Innovation". - Toshkent: TDPU nashriyoti 2023 yil 12-sonida.

РЕЗЮМЕ

Talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishda "klasterli yondashuv" tushunchasi bugungi kundagi zamонавиј pedagogikada salmoqli hissa qo'shuvechi vosita sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada klaster metodidan foydalanib o'quv jarayonlariga talabalarni jalb etish va bilimlarini mustaxkamlash uchun foydalanishlari haqida fikr-mulohazalar yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

Концепция «кластерного подхода» в развитии культуры сотрудничества в студенческом сообществе рассматривается как значимый способствующий инструмент в современной педагогике. В данной статье описано использование кластерного метода для вовлечения студентов в образовательный процесс и укрепления их знаний.

SUMMARY

The concept of the “cluster approach” in the development of a culture of cooperation in the student community is considered as a significant facilitating tool in modern pedagogy. This article describes the use of the cluster method to involve students in the educational process and strengthen their knowledge.